

**HILOLDOSHLAR OILASI TAVSIFI VA SISTEMATIKASI. TARQALISHI
VA AHAMIYATI.**

Muxtorova Gulsevarxon Xayrulla qizi

ADPI tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'naliши talabasi.

Ilmiy rahbar: Tojiboyev Murodali Umaraliyevich.

xayrullayevnagulsevar05@gmail.com

Аннотация: В данной работе представлена информация о семействе полумесяцев , их видах и родах, распространенных представителях по всей земле и их значении.

Ключевые слова: Циперовые, осока, ринхоспора, Фимбристилис, элеохарис, склерия, орех, категория.

Annotation: This thesis describes the family of hillocks ,their species and order , their representatives that are common throughout the Earth, and their importance.

Keywords: Cyperaceae, Carex, Rynchospora, Fimbristylis, Eleocharis, Scleria, nut, category.

Hiloldoshlar (Cyperaceae), ko'p yillik, ba'zan bir yillik bir urug'pallali o'simliklar oilasi, asosan o'tlar. 100 dan ortiq turkum va 5000 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Yer yuzining barcha iqlim mintaqalarida uchraydi. Asosan, zax, botqoq yerlarda, ariqlar bo'yida, bir qancha turi cho'l, adir va yaylovlarda uchraydi. Bu oiladagi eng yirik turkumlar: *Cyperaceae*, *Carex*, *Rynchospora*, *Fimbristylis*, *Eleocharis*, *Scleria* hisoblanadi. Bu oilaga bardi, qamish, papiro, solamalaykum kabi turlar kiradi. O'rta Osiyoda 18 turkumga mansub 152 turi, O'zbekistonda 16 turkumga mansub 74 turi tarqalgan. Bu oila vakillari ko'p yillik yoki bir yillik o'tlar bo'lib, poyasi ko'pinchga uch qirrali, bo'g'imsiz, barglari tilchasiz, yaxshi rivojhlangan yoki reduksiyalangan, yopiq qinli, asosan poyasining ostida joylashgan. Yaproq'i qattiq, ensiz, tasmasimon, tarnov shaklida, chetlari g'adir

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

budur, gullari bir yoki ikki jinsli, rangsiz mayda boshoqlarda o'rnashgan. Boshoqlari ro'vaksimon, soyabonsimon, kallakchasimon, boshoqsimon murakkab to'pgullarda yig'ilgan. Har bir gul bitta tangacha (qipiqliq) qo'lting'idan chiqadi. Changchilar 3ta ba'zan 2ta, urug'chisi 1ta, 3-2 mevabargli, tugunchasi ustki, bir uyal. Mevasi – yong'oqcha.

Vakillari- **qorabosh, iloq** (carex) ,**doirasimon solamaleykum** (*Cyperus rotundus*) O'zbekistonning barcha sug'oriladigan ekinzorlarida uchraydi. **Salomalaykum** (*Cyperus rotundus L.*) — hiloldoshlarga mansub ildizpoyali ko'p yillik begona o't. Poyasi ingichka, uch qirrali, yalang'och, bo'yi 15— 50 sm. Barglari yassi, kulrang, eni 5 m gacha. Gullari soyabonsimon, to'pgulga yig'ilgan. Mevasi uch qirrali yong'oqcha (uz. 1,5—1,8 mm). Ildizpoyalaridan ko'plab tuganakli novdalar chiqadi. O'simlik urug'idan va ingichka ildizpoyalaridan ko'payadi. Yosh o'simlikning poya asosida birlamchi ildizpoya rivojlanadi, ildizpoya uchida esa tuganak hosil bo'ladi, undan yangi ildizpoyalar yon atrofga yoyilib ketadi va ularda tuganaklar hosil bo'ladi. Bulardan yangi novdalar o'sib chiqadi. Har bir o'simlik tuproq sharoitiga qarab yon, qo'shimcha ildizpoyalar hosil qiladi, ulardan ham yer ustiga yangi poyalar o'sib chiqadi. Iddizpoyasi kraxmalga boy, tarkibida 0,5-1% gacha efir moylari bor. Iddizpoyasidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida terlatuvchi va siyidik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Salomalaykum O'zbekistonning barcha sug'oriladigan hududlarida sabzavot va boshqa ekinlari orasida begona o't sifatida ko'p uchraydi. Kurash choralar: kuzda yerni chuqur haydash, ekin ekishdan oldin begona o't ildizpoyalarini yig'ishtirib olish, chuqur kultivatsiya o'tkazish. Mayiyunda gullab, iyun-sentabrda urug'laydi. Tugunagi yordamida vegetative ko'payadi.

Iloq to'yimli ozuqa, tarkibida 20% gacha oqsil, 3.1% moy, 24,4% kletchatka, bo'ladi. Qizilqum o'tlarida iloq qo'ylar bahorgi ovqatining 85%ini, yozdagisini 75%ini tashkil etadi.

Xulosa.

Hiloldoshlar oilasi barcha mintaqalarda tarqalgani uchun turlari ham turli iqlim sharoitlarga moslashgan. Ular vakillari asosan o'tlar, daraxt va buta kabi hayotiy shakllari mavjud emas. Asosan ko'pchilik vakillari hayvonlar uchun asosiy yem-xashak ozuqa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1.O'.E.Xo'janazarov, X.Mavlonov, J.S.Sadinov "BOTANIKA" Toshkent – 2022-yil.
- 2.O'.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov "BOTANIKA" Toshkent – 2010-yil.
3. S.S.Sahobiddinov "Osimliklar sistematikasi" Toshkent - 1966-yil.